Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	



QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING MOHIYATI BO'YICHA NAZARIY ASOSLAR

Alimov Ilxomjon Ikromovich

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası professor v.b , i.f.n.

Email: ilhomikromovich2805@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7736-963X>

Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li

“Muvaffaqiyat mikromoliya tashkiloti” MChJ ijrochi direktori

Email: ikramovakmalbek@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-4814-3731>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada qiyosiy tahlil usuli yordamida qimmatli qog'ozlar bozorida ayrim muammolar aniqlangan va ularni ijobiy hal etish uchun mulohazalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qimmatli qog'ozlar bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiya, aksiyadorlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar.

Abstract: This article examines the nature, types and features of the domestic securities market. In the article, using the method of comparative analysis, some shortcomings in the securities market are identified and proposals for its positive solution are developed.

Key words: Securities market, securities, stock, shareholders, operations with securities.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность, виды и особенности отечественного рынка ценных бумаг. В статье с использованием метода сопоставительного анализа, выявлены некоторые недостатки на рынке ценных бумаг и выработаны предложения по его положительному решению.

Ключевые слова: Рынок ценных бумаг, ценные бумаги, акция, акционеры, операции с ценными бумагами.

KIRISH

O'tgan XX asrda iqtisodiyoti yuksak darajada taraqqiy topgan mamlakatlarning tajribasi shuni so'zsiz tasdiqladiki, faqat bozor iqtisodiyotigina iqtisodiyot samaradorlik ko'rsatkichlarining eng yuqori darajasini ta'minlaydi. Bozor mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiyotning tovar – pul munosabatlari bilan qay darajada to'liq qamrab olinganligi bilan bevosita bog'liq. Bu tovar bozorlari bilan bir qatorda moliya bozorini jumladan, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish zarurligini anglatadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti qimmatli qog'ozlarning rivojlangan aylanmasisiz amal qilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori modeli tamoyillariga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish respublika iqtisodiy rivojlanish strategiyasining yaxlit ekanligi hozirgi kundagi inkor etilmaydigan haqiqatdir. Dunyoning iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, qimmatli qog'ozlar bozori uzoq yillar davomida stixiyali ravishda yuzaga kelgan. Shundan keyin qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solib turuvchi qonunlar qabul qilingan. Mamlakatimizda esa, milliy qimmatli qog'ozlar bozori bilan birgalikda uning faoliyatini tartibga solib turuvchi qonuniy me'yoriy – hujjatlar parallel ravishda takomillashtirib borilmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan milliy qimmatli qog'ozlar bozorini doimiy rivojlantirishga qaratilayotgan katta e'tibori va tijorat banklarini kapitallashuvini oshirish va resurs bazasini yanada mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish investorlarning, shu jumladan xorijiy investorlarning fond birjasida muomalada bo'lgan bank aksiyalariga va korporativ obligatsiyalariga qiziqishi ortishiga omil bo'ldi. Mamlakatimizda keyingi yillarda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga yorqin misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston-2030” Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmonini keltirish mumkin. Mazkur farmonning “Barqaror iqtisodiyot o'sishi orqali aholi farovonligini ta'minlash”



yo'nalishlarida "Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish" ko'zda tutilgan.[1] Shu bilan birga, bu sohada ko'pgina muammolar hozirda ham o'z yechimini topmasdan qolmoqda. Respublikada faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksariyati qimmatli qog'ozlar bozorida sust faoliyat olib borishmoqda va buning natijasida ushbu bozorda raqobat past darajada saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarining aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning ulushi juda past darajada. Biz yuqorida ta'kidlagan farmonda "40-ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini "Xalq IPO"siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag'batlantirish mexanizmlarini qilish" vazifasi belgilab qo'yilgan.[1] IPO bu inglizcha "initial public offering" so'zi bo'lib, unda muomalaga chiqarilgan chiqarilgan aksiyalar investitsiya vositachilari orqali joylashtiriladi. Ushbu vazifani ijobiy hal etishda qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat olib borayotgan investitsiya tashkilotlarining operatsiyalarini ahamiyati o'ziga xos o'rin egallaydi. Biz mazkur maqolamizda milliy qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyatini ochib berishga va uning faoliyatini rivojlantirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqishga harakat qilamiz.

MAVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyatini tadqiq etish, xususiyatlarini ochib berish va uni tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlarini yetakchi xorijlik iqtisodchi olimlarning, jumladan, Frederik Mishkin,[2] V.A.Galanov,[3] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Frederik Mishkin o'z izlanishlarida asosan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati, turlari va ulardan olib boriladigan operatsiyalar to'g'risida tadqiqodlar olib borgan. Rossiyalik iqtisodchi olim V.A.Galanov o'z izlanishlarida Rossiya qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida izlanishlar olib borgan.

O'zbekistonlik mahalliy iqtisodchi olimlar I.I.Alimov,[4] I.L.Butikov [5] va boshqalarning ilmiy ilmiy izlanishlarida qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati, uning turlari, bozorda olib boradigan operatsiyalari va ularni tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. O'zbekistonlik yetuk iqtisodchi olim, professor I.L.Butikov o'zining izlanishlarida xalqaro amaliyotda va milliy qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va uning xususiyatlarini tadqiq etgan va xususiyatlarini ochib bergan.[5] Maqola muallifi o'zining o'quv qo'llanmasida respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorini mohiyatini va unda tijorat banklari tomonidan olib boriladigan operatsiyalarini olib borish tartibi va unga qo'yilgan talablarni yoritib bergan.[4] Lekin respublikamizda hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy obyektiv va subyektiv, jumladan ijobiy va salbiy omillar hozirda nisbatan kam o'rganilgan. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning emission faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan makroiqtisodiy va mikroiktisodiy muammolarni ijobiy hal etish va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilmagan. Biz mazkur maqolamizda ushbu muammolarni ijobiy hal etish yuzasidan mulohazalarni shakllantirishga harakat qilamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy mushohada, adabiyotlarni tanqidiy o'rganish, taqqoslash, tizimli tahlil va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning adabiyotlari va maqollari tahlil etilgan. Hozirda mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorida olib borilayotgan operatsiyalarini tahlil etishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy saytlaridagi ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor – bu faqatgina o'ziga xos dunyo hisoblanadi. Unda o'zining qonunlari, muammolari va qarama-qarshiliklari hukm suradi. Bozor – murakkab va anglab bo'lmas dunyo, lekin u o'zida ishtirok etmoqchi bo'lganlarning barchasi uchun ochiqdir. Iqtisodiyotga tegishli mahalliy adabiyotlarda "moliya bozori" va "moliyaviy bozor" degan atamalar sinonim sifatida keng foydalaniladi. Biz "moliya bozori" o'z mohiyatiga asosan to'g'ri atama ekanligi yuzasidan fikr mulohazalar bildiramiz.

Har bir jamiyatda talab va taklif uchrashadigan joy bozor hisoblanadi. Agarda biz talabga asoslangan pul oqimini o'zining ehtiyojini qondiruvchi tovarni taklif etadigan joy, aynan taklif etayotgan tovar nomi bilan ataladi. Masalan, "dehqon bozori", "mashina bozori", "buyum bozori" va hokazo. E'tibor bersak o'zbek tilida "dehqonli bozor", "mashinali bozor" yoki "buyumli bozor" degan atamalar mavjud emas. Shuning asosida, "moliya bozori" atamani mantiqan to'g'ri degan fikrni bildiramiz.

Moliya bozorining mohiyatining ochishda, uning boshqa bozorlardan farqini yoritish lozim. Har qanday bozor singari moliya bozori ma'nolikli ikki qutbga bo'lish mumkin. Ulardan birida maxsus tovar hisoblanadigan kapital yetkazib beruvchilar – vaqtincha bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan va ularni nafaqat to'liq saqlash bilan birga ularni ko'paytirishni istovchi turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat turadi. Ushbu qutb ishtirokchilarining bosh maqsadi bo'lib moddiy manfaatdorlik hisoblanadi.



Qutbning ikkinchi tomonida esa – yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab turgan quvvatlarini modernizatsiya qilish, kengaytirish, qayta ta'mirlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yoki qo'shimcha sarmoyaga ehtiyoji bo'lgan turli mulkchilik shaklidagi sub'ektlari, jismoniy shaxslar, shuningdek davlat turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu toifa vakillari jalb etiladigan sarmoya uchun ma'lum foizni to'lashga moyillik bildiradilar. Aynan ikki qutb vakillari uchrashadigan joy moliya bozori hisoblanadi. Moliya bozori juda murakkab tuzilishga va yuqori-past pog'onalarga ega bo'lgan maxsus bozor bo'lib, unda juda katta miqdordagi pul mablag'lari bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda aylanib turadi va bu jarayon harakatlari milliy iqtisodiyotning mikrodarajadan tortib makrodarajagacha bo'lgan holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishi natijasida moliya bozori sifatiga yangi ma'noga ega bo'ladi. Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb etishda, hamda ulardan foydalanishda moliya bozorining ahamiyati beqiyos katta bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliya bozorining tarkibiy tuzilmasi bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Bu moliya bozorining tarkibiy tuzilmasi bo'yicha Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim, iqtisod fanlari doktori, professor V.A.Galanov bildirgan fikrni qo'llab quvvatlaymiz. Uning fikricha moliya bozori to'rtta tarkibiy qismdan iborat.


tijorat banklarining kapitallari bozori;

valyuta bozori;

qimmatli qog'ozlar bozori;

sug'urta va investitsiya fondlari bozori [4]

Ushbu fikrni mahalliy olimlardan iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Alimov I.I. qo'llab quvvatlaydi. Moliya bozori tarkibiy tuzilishining biz quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Moliya bozori tarkibiy tuzilmasi

Moliya bozorining birinchi qutb ishtirokchilarining bosh maqsadi ma'lum daromad topish maqsadida o'zlaridagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini ma'lum sohaga yo'naltirishdir. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan moliya bozorining tarkibiy tuzilmalari mohiyatan ayni shu sohani o'zida mujassamlashtiradi. Moliya bozorini ushbu tarkibiy tuzilmalarida vaqtincha bo'sh pul mablag'lari jamlanadi, markazlashadi va kapitalga aylanadi hamda ma'lum daromad keltirish uchun ma'lum sohalariga yo'naltiriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining kapitallari bozori, valyuta bozori, sug'urta va investitsiya fondlari bozorining mohiyatini alohida o'rganuvchi maxsus fanlar mavjud. Biz asosiy e'tiborimizni boshqa bozorlarga nisbatan yosh hamda nozik xususiyatlarga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozoriga qaratamiz.

Qimmatli qog'ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlar tizimi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari qo'yidagilardan fond birjasi, qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi; qimmatli qog'ozlarning mulkdori yoki qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulkiy huquq egasi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyatini o'rganishda uni turli tomonlardan, ya'ni institutsional jihatdan yoki bozor ishtirokchilari tomonidan, emitentlar va investorlar, investitsiya institutlari va moliya dastaklarini turli nuqtai nazaridan boshlash bizning fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka asosan "qimmatli qog'ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlar tizimi" hisoblanadi. Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasi boshqa bozorlar tushunchasidan deyarli farq etmaydi. Agar tovar nuqtai nazardan qaralsa, qimmatli qog'ozlar ham boshqa tovarlarga o'xshash tovar hisoblanadi. Agarda pulni ham umumiy ekvivalent rolini o'ynaydigan o'ziga xos maxsus tovar ekanligini hisobga olsak, bir vaqtning o'zida qimmatli qog'oz ham o'ziga xos xususiyatga ega tovar hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining tovarlar, ya'ni moddiy ne'matlar (ishlar, xizmatlar) bozoridagi quyidagi farqlari mavjud:



Qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa moddiy ne'matlar bozoridagi birinchi farqi bozorning obyekti va undagi savdolarining hajmi hisoblanadi. Moddiy ne'matlar bozorining ob'ekti aniq bir tovar hisoblanadi, masalan, bug'doy, o'simlik yog'i, guruch va neft boshqalar. Qimmatli qog'ozlar bozorining obyekti faqat qimmatli qog'oz hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdolar hajmi boshqa moddiy qiymatlar bozoridagi savdo hajmlaridan katta. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlar bozorida savdo hajmlarini imkoniyati chegara bilmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa moddiy ne'matlar bozoridan ikkinchi farqi bu bozorni tashkil etish usuli hisoblanadi. Moddiy ne'matlar bozorini obyekt insonlarning mehnat faoliyati natijasida ishlab chiqariladi. Moddiy ne'matni yaratish uchun ma'lum vaqt hamda u ma'lum jarayondan o'tadi. Masalan, bug'doyni ekish, unga ishlov berish, yig'ishtirish yoki oltin qazib olish, uni qayta ishlash va xokazo. Qimmatli qog'ozlar har bir mamlakatdagi qonunchilikka asosan bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini moddiy ne'matlar bozoridagi uchinchi farqi bo'lib muomala jarayonining ahamiyatliligi hisoblanadi. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning maqsadi tovarning iste'moli hisoblanadi. Moddiy ne'matlar muomalada bo'lish jarayoni cheklangan, ko'p holatlarda bu jarayonlar qancha kam bo'lsa, shuncha yaxshi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar faqatgina muomala jarayonida harakat qiladi. Qimmatli qog'ozlarning muomala jarayonida qo'ldan-qo'lga o'tish jarayonlari, masalan aksiyalarning muomalada yurishi deyarli cheklanmagan. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarni muomalada aylanish tezligi uning sifat ko'rsatkichidan dalolat beradi. Agarda, aksiyadorlik jamiyatlari keng taraqqiy topgan AQShda ayrim aksiyadorlik jamiyatlari yuz yildan ortiq faoliyat yuritadi. Ularning aksiyalari doimo muomala jarayonidagi harakatlarini hisobga olsak, unda qimmatli qog'ozlar bozorini o'ziga xosligi yana bir bor ko'zga tashlandi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, aksiyadorlik jamiyati qanchalik tez "sinsa" uni muomaladagi qimmatli qog'ozlarga o'z harakatini shunchalik tez to'xtatadi. Bunga yorqin misol tariqasida dunyoda 2008 yilda yuzaga chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin. AQShdagi ipoteka banklarining "sinishi" natijasida ularning aksiyalarini sotib olgan investorlar bankrotga uchradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini moddiy ne'matlar bozoridan to'rtinchi farqi shundan iboratki, ularning qiymat ahamiyati hisoblanadi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bu insoniyat hayotining asosi hisoblanadi, shu asosda moddiy ne'matlar bozori insoniyat uchun qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan birlamchi bozor hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "qimmatli qog'ozlar bozori" va "fond bozori" degan atamalarini sinashli sifatida talqin etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar esa ushbu atamalar o'rtasidagi farq to'g'risida mulohaza bildiradilar. Biz ushbu atamalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarimizni bildiramiz.

Qimmatli qog'ozlar bozorining uning ishtirokchilari, savdo joyi va undagi narx-navoni shakllanishiga asosan joyi va uni ikki guruhga ajratish mumkin:

Fond bozori. Ushbu bozor qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etadi. Fond bozorida qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotlari faoliyati hisoblanadi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari quyidagilardir:

fond birjasi, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq fond bo'limlarini tashkil etgan boshqa birjalar;

qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi;

qimmatli qog'ozlarning mulkdori yoki qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulkiy huquq egasi.


Fond bozorida qimmatli qog'ozlarni emitentlari va sarmoyadorlar bevosita ishtirok etmaydilar. Bu bozorda savdo albatta moliyaviy vositachi (diler yoki broker) orqali amalga oshiriladi. Fond bozorida asosan aksiyalar, obligatsiyalar va davlat qimmatli qog'ozlari savdosi olib boriladi. Fond birjasi, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq fond bo'limlarini tashkil etgan boshqa birjalar va qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyatni tegishli litsenziya asosida amalga oshiradi.

Fond birjasining, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq fond bo'limlarini tashkil etgan boshqa birjalarning a'zolarini qimmatli qog'ozlar savdosida ishtirok etishga qo'yish ularda investitsiya vositachisi yoki investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi sifatida qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining keyingi tarkibiy qismi bo'lib boshqa qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. Fond bozoridan farqli ravishda ushbu bozorda emitent va bo'lajak sarmoyador hech qanday moliyaviy vositachi yordamisiz bevosita oldi-sotdini amalga oshiradilar. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilaridan biri qimmatli qog'ozlarning mulkdori yoki qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulkiy huquq egasi hisoblanadi. Ushbu tashkilotchi qimmatli qog'ozlar bilan savdoni amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etadi. Ushbu bozorni asosan turli mulkchilikka asoslangan tijorat banklari tashkil etadilar va ushbu bozorda ularning depozit sertifikatlari, depozit-omonat sertifikatlari hamda veksellar savdosi amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, fond bozoridan farqli ravishda boshqa qarz majburiyatli



qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklif asosidagi narxda emas, balki, ular bo'yicha oldinda belgilangan narhlar hamda shartlar asosida sotiladi. Bundan tashqari, boshqa qarz majburiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorida asosan noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar savdosi olib boriladi. Biz quyidagi rasmda qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy tuzilmasini keltiramiz.



2-rasm. Qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy tuzilmasi¹

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda "Toshkent" Respublika fond birjasida asosan aksiyalar va korporativ obligatsiyalar savdosi olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasining fond bo'limida davlat qimmatli qog'ozlari bilan savdolar olib boriladi. O'zbekistonda 1998-yil 1-iyunda amalga kiritilgan "Elsis-Savdo" birjadan tashqari elektron savdo tizimi qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish uchun tushgan buyurtmalarni jamlash hamda bajarish tamoyiliga asoslanib faoliyat yuritadi. Savdolarida u yoki bu emitentning aksiyalariga qimmatli qog'ozlar bilan tuziladigan eng katta hajmdagi bitimlarni ta'minlovchi yagona narx belgilanadi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, aksiyalarning xarid va sotish narxlari bitta savdo bitimi davomida barcha xaridorlar uchun teng bo'ladi. Birjadan tashqari savdolarining elektron tizimi O'zbekistonning har qanday fuqarosiga fond bozorida mustaqil ishlash imkoniyatini beradi.

Qimmatli qog'ozlarning eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, u yuqori daromad keltiradigan iqtisodiyotning faolligi bilan shakllanib boradi va qimmatli qog'ozlar bozori sarmoyalarning jalb etilishini rag'batlantirib, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlanishini, taqsimlanganda ham rivojlanib borayotgan istiqbolli tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori ishlab chiqarish taraqqiyotini rag'batlantiradigan kuchli manba bo'lib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar va emitentlar o'rtasidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larining harakati, ularning hajmlari juda ko'p omillarga bog'liq. Bizning fikrimizcha, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Qimmatli qog'ozlar bozorining daromadlilik darajasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini soliqqa tortilish darajasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida kapital va u keltiradigan foydani yo'qotilish qaltisligining darajasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning haq-huquqlarini himoya qilish darajasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etilishi va uning zamonaviy savdo tizimlari bilan ta'minlanilishi darajasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida haqqoniy, to'liq va oshkora ma'lumotlarning mavjudlilik darajasi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan omillar mamlakatda milliy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga va aksincha, uning inqirozga uchrashiga olib kelishi mumkin. Masalan, 1998 yilda Rossiyada qimmatli qog'ozlar bozorining inqiroziga bozordagi davlat qimmatli qog'ozlarining asoslanmagan yuqori daromadlilik sabab bo'ldi.

Mamlakatimizda bozor mexanizmi samarali faoliyat yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish hamda tartibga solish bo'yicha kerakli barcha qonuniy-

¹ Rasm mualliflar tomonidan tayyorlandi



me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Respublikamizda bosib o'tilgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanganligiga misol uchun, mamlakatimizda deyarli barcha ishlab chiqarish obyektlari aksiyadorlik jamiyatlari tamoyillar asosida tashkil etilganligini keltirishimiz mumkin. Ushbu omil esa bizga hozirda mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunlarda ayrim kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, amaldagi qonunchiliklarga eng avvalo, minoritar aksiyador tushunchasini kiritish hamda ularning huquqlarini himoya qilish to'g'risida aniq nazarda tutuvchi moddalarni ishlab chiqish lozim. Chunki, mamlakatimizdagi aholining aksariyat qismi minoritar aksiyadorlar hisoblanadi. Lekin, aholi ixtiyoridagi aksiyalar esa aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalining juda kam ulushini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoridagi biz yuqorida ta'kidlab o'tgan salbiy holatni bartaraf etish uchun milliy qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarni mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga sotish uchun o'zlarining dividend siyosatini qayta ko'rib chiqishlari maqsadga muvofiqdir;

Mamlakatimizda aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlaridan olinadigan daromad solig'ini bekor qilish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarni shu jumladan, aholining qiziqishi ortadi deb hisoblaymiz;

Boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan tijorat banklarida qulay omillarning mavjudligi mamlakatimiz tijorat banklari oldida qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat ko'lamini yanada kengaytirish;

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi banklar assotsiatsiyasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida tijorat banklari xodimlaridan qimmatli qog'ozlar bilan faoliyat yuritishini amalga oshiradigan qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va ularga chetdan malakali muttaxislar jalb etish lozim;

Mamlakatimiz aholisining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi savodxonligini oshirish uchun tijorat banklarida yuqori malakali xodimlar va chetdan muttaxislar jalb etgan holda sayyor promoud-guruhlar tuzish lozim;

Xususiy investorlar (aholi)ning qimmatli qog'ozlar bozorida erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida birjada jismoniy shaxslarga tegishli minoritar, ya'ni qo'lida aksiyasi kam bo'lgan aksiyadorlarning mayda paket aksiyalarini sotuvga qo'yish uchun muljallangan maxsus savdo maydonini yaratish.

Xulosa tarzida ta'kidlash lozimki, milliy qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish imkoniyatlarining yaratilishini ta'minlash, uning likvidligini oshirish va ikkilamchi bozor jarayonlarini kengaytirish, tijorat banklaridan tashqari boshqa moliya institutlari va jismoniy shaxslar ulushlarini ko'paytirish, shuningdek emitentlarni tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya qilish hisobiga investorlarning tarkibini o'zgartirish va sonini oshirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bu esa O'zbekiston Respublikasi milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro miqyosda o'z o'rnini yanada mustahkam egallashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4926736>
2. Frederic Mishkin "The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition)" Pearson, United Kingdom, 2015.
3. Рынок ценных бумаг: учебник / под ред. В.А.Галанова.. А.И.Басова. 2-е изд. перераб. и доп. – М.: «Финансы и статистика». 2016.
4. Alimov I.I., Ikramov A.I., Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. T.: «Iqtisodiyot» 2018
5. Бутиков И.Л. Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. Т.: «КОНСАУДИТИНФОРМ НАШР» 2008.
6. <http://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb. sayti.
7. www.uzse.com "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
